

## “Yer resurslarini boshqarish” fakulteti professor-o‘qituvchilari targ‘ibot tadbirlarida

2020-yil 14-noyabr kuni Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti “Yer resurslarini boshqarish” fakultetining kafedra mudirlari va professor-o‘qituvchilari tomonidan mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun - mohiyati va ahamiyatini keng jamoatchilikka yetkazish maqsadida O‘rtachirchiq tumanidagi birlashtirilgan mahallalarda “Yangi O‘zbekiston - yangi dunyoqarash” shiori ostida ma‘naviy targ‘ibot tadbirlari o‘tkazildi. O‘rta Chirchiq tumanidagi 53-sonli maktabda Jaloir MFYda istiqomat qiluvchi aholi bilan “Yerdan foydalanish” kafedrasini mudiri, dotsent A.R.Babajanov, ushbu kafedra professori, i.f.d. A. S. Altiev, Yer resurslarini boshqarish fakulteti dekani Sh.K.Narbaevlar ishtirokida uchrashuv bo‘lib o‘tdi. Uchrashuvda professor A.Altiev Prezidentimiz tashabbuslari bilan mamlakatimizda olib borayotgan islohotlar, aholining ijtimoiy turmush tarzini yaxshilash, farovonligini ta‘minlashga qaratilgan ustuvor vazifalar to‘g‘risida ma‘ruza qildi. Dotsent A.Babajanov mamlakatimizda yoshlarga berilayotgan e‘tibor va imtiyozlar, yoshlar siyosati, barkamol va intellektual avlodni tarbiyalash borasida amalga oshirilayotgan islohotlar to‘g‘risida ma‘ruza qilib berdilar. Aholini qiziqtirgan savollarga javob berildi.



2020- yil 14- noyabr kuni soat 10.00 da O‘rta Chirchiq tumanidagi 16-sonli maktabda Rovatak MFYda istiqomat qiluvchi aholi bilan “Oliy matematika” kafedrasini mudiri va ushbu kafedra professor-o‘qituvchilari ishtirokida uchrashuv bo‘lib o‘tdi. Uchrashuvda F.To‘raev mamlakatimizda so‘ngi yillarda amalga oshirilayotgan izchil islohotlar, ta‘lim tizimini rivojlantirish sohasidagi ustuvor vazifalar, ayniqsa keyingi yillarda maktabgacha va o‘rta maktablarda yosh avlodni o‘qitish va tarbiyalash, ularni “Yangi O‘zbekiston”ning kelajagi uchun tayyorlash kabi dolzarb vazifalar haqida ma‘ruza qildi. Uchrashuv aholi tomonidan berilgan savol-javoblar bilan qiziqarli va mazmunli o‘tdi. 2020 -yil 14 -noyabr kuni soat 14.00 da O‘rta Chirchiq tumanidagi 53-sonli maktabda Xo‘ja Uchqun MFYda istiqomat qiluvchi aholi bilan “Davlat kadastrlari” kafedrasini mudiri, dotsent Q.Raxmonov, ushbu kafedra professor-o‘qituvchilari ishtirokida uchrashuv bo‘lib o‘tdi.



Uchrashuvda dotsent Q.Raxmonov mamlakatimizda ta‘lim sohasida olib borayotgan islohotlar, Prezidentimizning ilm-fan va ta‘limni rivojlantirish bo‘yicha ustuvor vazifalar to‘g‘risida ma‘ruza qildi. Uchrashuvlarning badiiy qismida taklif etilgan san‘atkorlar, maktab o‘quvchilari jamoasi tomonidan tayyorlangan qo‘shiq, raqs hamda sport o‘yinlari namoyish qilindi. Tadbirlar qiziqarli va mazmunli o‘tdi. Uchrashuvda mahalla raislari, uch yuzga yaqin mahalliy aholi hamda maktab jamoalari faol ishtirok etib, tadbirni yuqori saviyada tashkil etishga va uni mazmunli o‘tkazilishiga o‘zlarining munosib hissalarini qo‘shishdi.



**TIQXMMI matbuot xizmati**